

Bafayev Muxiddin Muxammadovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

OLIIY TA'LIM TIZIMI MUHITIDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Tolerantlikni tarbiyalash, tolerantlik madaniyatini oshirish, shaxsning ta'lim muhitida tolerantlik sifatlarini rivojlantirish muammosi kontekstida bugungi yoshlar, Yangi O'zbekiston yoshlarini ta'lim muhitiga moslashuvchanlik, mustaqil ta'lim jarayonida bilim olish va uni o'zlashtirish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish jarayonida barqarorlik, toqatlilik, bardoshlilik xususiyatlarining tarkib topishi bilan ahamiyatli bo'lib hisoblanadi va ayni paytda ularda tolerantlikni shakllantirish ham dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *tolerantlik, tolerant munosabat, bardoshlilik, qadriyat, ijtimoiy-psixologik omil, shaxs sifatleri, xulq me'yorlari, tolerant muhit, tolerant tafakkur.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ В СРЕДЕ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В контексте проблемы воспитания толерантности, повышения культуры толерантности, развития качеств толерантности личности в образовательной среде сегодняшняя молодежь имеет важное значение благодаря формированию специфики адаптации молодежи Нового Узбекистана к образовательной среде, приобретению и освоению знаний в процессе самостоятельного образования, развитию научной деятельности является актуальной проблемой и в то же время формирование толерантности в них.*

Ключевые слова и понятия: *толерантность, терпимость, ценность, социально-психологический фактор, качества личности, нормы поведения, толерантная среда, толерантное мышление.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF TOLERANCE IN THE ENVIRONMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Abstract. *In the context of the problem of promoting tolerance, increasing the culture of tolerance, developing the qualities of individual tolerance in the educational environment, today's youth is important due to the formation of the specifics of the adaptation of the youth of New Uzbekistan to the educational environment, the acquisition and development of knowledge in the process of independent education, the development of scientific activity is an urgent problem and at the same time the formation of tolerance in them.*

Key words and concepts: *tolerance, value, socio-psychological factor, personality qualities, norms of behavior, tolerant environment, tolerant thinking.*

Jahon hamjamiyatini globallashtirish jarayoni turli geografik va madaniy doiralarga bo'linishi va kengayishini nazarda tutgan holda aytish joizki, ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyatda tinchlik va totuvlikka kuch va qurol yordamida emas, balki odamlar o'rtasida axloqiy va madaniy me'yorlar asosidagi munosabatlarni o'rnatish orqali erishish mumkinligi bugun ayon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan ta'lim muhitida ham talaba-yoshlar madaniy yo'nalishdagi tegishli o'quv

materialidan ma'lum bir xalq madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini, uning axloqiy asoslarini bilmaslik uning madaniy me'yorlarini rad etishga va natijada millatlararo nizolarga olib kelishi mumkinligini tushunishlari kerak [3].

Ma'lumki, tolerantlik tarbiyasi, tolerant ruhda ta'lim-tarbiya berishni qadriyatlarga asoslangan holda tashkil etish, shaxsda mutanosib tolerant sifatlarni shakllantirish asosida uni rivojlantirish bugungi kun yoshlari ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada oliy o'quv yurtining profiliga qarab hajmi va mazmuni bo'yicha turli madaniy yo'nalishga ega bo'lgan ta'lim mazmunini singdirib borish lozim.

Ko'p yillik tadqiqotlar tolerantlikning quyidagi 4 jihatini aks ettirish kerak degan fikrga olib keldi:

1. Tolerantlik xudbinlik va egosentrizmga qarama-qarshilik sifatida.
2. Tolerantlik boshqalarga nisbatan bag'rikenglik sifatida.
3. Tolerantlik ezgulik, haqiqat va mehr-shafqat sari yo'l sifatida.
4. Tolerantlik va me'yor (mutanosiblik hissi) an'anaviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida.

Falsafa va madaniyatshunoslikda, ijtimoiy psixologiyada talabalar uchun tolerantlik tushunchasini belgilashda, odatda, u o'zini tutish, bag'rikenglik va kechirish qobiliyatini o'z ichiga oladi [2]. Shuningdek, talabalarga shuni alohida ta'kidlash kerakki, tolerantlik – dunyoqarash, o'zini nazorat qilish, o'zini tuta bilishning o'ziga xos shakli bo'lib, bu hissiyotlarga berilmasdan, vaziyatni oqilona baholash va xotirjamlikni saqlash imkonini beradi [4]. Salbiy his-tuyg'ularni bostirish va bag'rikenglik ko'rsatish qobiliyati hammaga xos emas va shu bilan bir qatorda bir xil ham emas. Bu – hayotni falsafiy tushunish soddaligi va shu bilan birga murakkabligi bilan hayratlanarli darajada donolikning namoyon bo'lishi natijasidir. Talabalar etnik-madaniy qadriyatlar tizimidagi bag'rikenglik tushunchasi ezgulik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqligini tushunishlari kerak, bu vazminlik boshqalarga nisbatan bag'rikenglik ko'rinishi sifatida talqin etiladi: "Yaxshilik qilsangiz, yaxshilik ko'rasiz", "Birovga yomonlik qilsang, undan yaxshilik kutma", "Yaxshilik zoye ketmaydi"... Shunday qilib, tolerantlikni hammaga ham xos bo'lmagan yaxshilik qilish qobiliyati sifatida ham tasniflash mumkin: "Hamma yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishi mumkin, faqat mard insongina yomonlikka yaxshilik bilan javob beradi", "Seni tosh bilan urganga ziyofat ber", "Agar odamlar bir-birlarini kechirmaganlarida qotillikning oxiri bo'lmas edi"...

Talaba ma'lum bir madaniy an'adagi bag'rikenglik ideali, qoida tariqasida, insonning mohiyatini, uning qarama-qarshi tabiatini hushyor va real baholashdan, dunyoda mukammal va ideal narsa yo'qligini tan olishdan kelib chiqishini, ideal va mukammallik nisbiy tushunchalar ekanligini tushunishi kerak. Shuning uchun inson axloqiy tabiatining nomuvofiqligi va nomukammalligini tan olib, unga nisbatan ikki xil munosabatni nazarda tutadi: qoralash yoki ayblash, yoki tushunishning namoyon bo'lishi. Bu an'anaviy ravishda ko'plab xalqlarning falsafasi va madaniyatiga xos bo'lgan va barqaror muvozanat, tinchlik va totuvlikning kaliti bo'lgan shaxsga munosabatning ikkinchi turidir.

Talabalar ongiga yetkazilishi lozim bo'lgan muhim xalq hikmatlari ham ularni toqatlilikka o'rgatishi shubhasiz. Zero, donishmand xalq naqlarida ham bu o'z aksini topgan: "Azob ko'rmay rohat yo'q", "Azobga bardosh kerak, hamisha yo'ldosh kerak", "Besabrning nafs shoshar ... Bu bilan muvozanat va uyg'unlikni saqlashning kaliti sifatida jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, xatti-harakatlar, hukmlar va qoidalarga rioya etishga chaqiriladi. Ko'p asrlar davomida ko'plab xalqlar hayotini falsafiy tushunish natijasida har narsada mo'tadillikni afzal ko'rgan. Shunday qilib, talabalarda tolerantlik (bag'rikenglik), go'yo ijtimoiy munosabatlar zanjirining ikkinchi bosqichi ekanligi ayon bo'ladi: uning namoyon bo'lish zarurati nizo yuzaga kelgan yoki nizoga yaqin bo'lgan vaziyatlarda paydo bo'ladi. Har narsada – so'zda, xulq-atvorda, odamlarning harakatlarida mutanosiblik hissi – tolerant strategiyalarda afzal ko'riladigan "oltin me'yor" o'lchovining har qanday oshib ketishi salbiy oqibatlariga olib keladi [5]. Ammo, shuni alohida ta'kidlashni istardikki, tolerantlikning yuqorida muhokama qilingan barcha "global" jihatlari va tarkibiy qismlari talabalarda o'quv jarayonida faqatgina yetkazish uchun yetarli emas, balki aynan tolerantlik jihatlari ularni shakllantirish orqali tafakkurida o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Bunga asosan quyidagilarga e'tibor qaratishni lozim deb topdik:

- oliy ta'lim muhitida eng muhim xususiyat shundan iboratki, o'qituvchi talabani xato qilishga mutlaq qonuniy huquqini tan oladi, bu xatoni haqiqatni o'rganishning mutlaq zarur va tabiiy bosqichi, shuningdek, axloqiy tarbiya jarayonida ham hisobga oladi. "Hech kim mukammal emas, hech kim kamchiliklardan xoli emas. "Hech kim xatolardan xoli emas". Ya'ni, talaba o'z xatosiga normal va tabiiy munosabatni singdirish orqali xato qilish huquqini "qo'lga kiritadi", bu bilan talabani qoralash va masxara qilish reaksiyasi kamroq namoyon bo'ladi. Bunda, albatta, o'qituvchi tarafidan tolerant munosabat talab etilib, talabani xatosini anglashga va uning oqibatini tushunishga va bu xatoni tuzatishga erishishga harakat qilinishi lozim.

- o'qituvchi talabani "kutilmagan savoli"ga yoki talabani subyektiv fikriga toqat qiladi, talabani xatosi unga ayon bo'lishiga qaramay, u muhokamani o'tkazishga va talabani o'z fikri noto'g'ri degan xulosaga keltirishga intiladi, har qanday holatda ham u yakuniy hukm va baholarni qabul qiladi, bu bilan u "Volter formulasi"ni amalga oshiradi: "Men sizning qarashlaringizga qo'shilmayman, lekin men Siz o'z fikringizni ifoda etishingiz uchun o'lishga ham tayyorman" [1].

-O'qituvchi ma'ruzalarda, shuningdek, o'z fikrini bildirishning boshqa imkoniyatlarida har tomonlama kategoriyalik, bir ma'nolilik va bir chiziqlikdan qochadi, talabalarga ular tomonidan turli tanqidiy baho va mulohazalar, e'tiroz va fikr bildirish imkoniyatini qoldiradi.

-o'qituvchi ko'p hollarda talaba undan ancha yosh ekanligini va yetarli hayotiy tajribaga ega emasligini tushunadi va shuning uchun talabaga bir qator qo'shimcha "erkinlik darajalari" berib, ba'zi bir salbiy xulq-atvor ko'rinishlarining sabablari va boshqa salbiy reaksiyalarni tushunishga harakat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim muhitida tolerant munosabat nafaqat o'qituvchi-talaba munosabatlarida, balki, talaba-ma'muriyat diadasida ham o'zini namoyon qilishi mumkin. Bunday ta'sir usuli talabani shaxs sifatida boshqa ijtimoiy yoki shaxslararo munosabatlarga kirishishiga yoki o'rnatishida o'zini ijobiy samarasini beradi. Bu bilan u, o'zi, oilasi, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan munosabat o'rnatishda tolerantlik sifatlarini namoyon qila boshlaydi.

Talaba universitet partasida o'tirgan vaqtdan boshlab o'zi faoliyat yuritadigan sohasi yoki ta'lim muassasasini tugatgandan so'ng o'zini amalga oshiradigan kasbiy muhitiga xos bo'lgan va muqarrar bo'lgan nomuvofiqliklar, nizolar, kelishmovchiliklar haqida bilim va g'oyalarni oldindan o'zlashtiradi [6]. Talaba ushbu mojarolarni qanday bashorat qilishi kerakligi, ularni qanday oldini olish kerakligi, ularni qanday yengish kerakligi, nizoli vaziyatlardagi xulqi bilan oldindan tanishtirib o'tish lozim bo'ladi. Ayni tolerant axloq ana shunday murakkab vaziyatlarda insonni aql bilan ish tutishga, murosa-madora qilishga, har qanday muammoga duch kelinganda ularga oqilona yechim qidirishga undaydi va nizolarni konstruktiv hal qilishga chorlaydi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun muhim va zarur bo'lgan sifat bo'lib hisoblanadi. Keyingi maqolalarimizda pedagogik ta'lim muassasalari talabalarida tolerantlik shakllanishining darajalari va ularda nizoli vaziyatlardagi xulq, talabani o'quv motivatsiyasi hamda uning ruhiy-asab barqarorligi bilan o'zaro bog'liqlikdagi tadqiqot natijalarini keltiramiz.

Adabiyotlar:

1. Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. – М.: Смысл, 2000. – 255 с.
2. Бардиер Г.Л. Социальная психология толерантности. – СПб.: Изд-во, СПбГУ, 2005. – С.120.
3. Братченко С.Л. Психологические основания исследования толерантности в образовании / Л.С. Братченко Электронный ресурс. — Режим доступа: www.hpsy.ru.
4. Bafayev M.M. Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari. – "Pedagogika" jurnali. – № 1. – Toshkent, 2023. – B.66-70
5. Магомедова Е.В. Толерантность как принцип культуры. Ростов-на-Дону, 2000. – С.46-60
6. Хасан Б. И. Конструктивная психология конфликта: учебное пособие по дисциплине "Педагогика" цикла "Общепрофессиональные дисциплины" для студентов вузов, обучающихся по педагогическим специальностям": описание и анализ конфликта. Модели разрешения конфликта. Технологии переговорного процесса. Тренировка переговоров. – М.: Питер, 2003. – 250 с.